

QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHDA QIYMAT ZANJIRIDAN FOYDALANISH

USING THE VALUE CHAIN IN DEVELOPING VALUE-ADDED STRATEGIES

¹Xujayev Xurshid
Xamrayevich

¹O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi. G-mail: khujaevkhurshid@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda qiymat zanjiridan foydalanish masalalari o'rganilgan. Mazkur mavzu bo'yicha turli xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tadqiq qilingan. Global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlarining ko'rsatkichlari, global qo'shilgan qiymat zanjiri modellari, 2007-2024-yillarda jahon yalpi eksportining tarkibida global qiymat zanjiri ulushi hamda jahon savdosining rivojlanish yo'nalishlari va ularga qo'shilgan qiymat zanjirining ta'siri tahlil qilingan.

Eng. - This article studies the use of value chains in developing value-added strategies. Various foreign and domestic scientific literature on this topic has been reviewed. The indicators of global value-added chain measurements, global value-added chain models, the share of global value chains in the structure of world gross exports in 2007-2024, as well as the development trends of world trade and the impact of the value chain on them are analyzed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *qo'shilgan qiymat, qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyalari, global qo'shilgan qiymat zanjiri, qo'shilgan qiymat zanjiri, investitsiya, moliyalashtirish, qo'shilgan qiymatni oshirish, moliyaviy natijalar, bilvosita qo'shilgan qiymat, xorijiy qo'shilgan qiymat.*

❖ *value added, value-added strategies, global value-added chain, value chain, investment, financing, value-added, financial results, indirect value added, foreign value added.*

Kirish.

Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, qiymatni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'shilgan qiymat zanjiridan foydalanish korxonalarning ichki va tashqi faoliyatini tizimli ravishda tahlil qilishga imkon berib, har bir bosqichda qiymat yaratish omillarini aniqlashga xizmat qiladi. Qiymat zanjiri konsepsiyasi ishlab chiqarish, logistika, marketing va xizmat ko'rsatish kabi asosiy hamda yordamchi faoliyat turlarini o'zaro

bog'liq holda ko'rib chiqishni hamda mazkur jarayonlarga investitsiya jalb qilishni taqozo etadi. Korxonalar qiymat zanjiri asosida o'z faoliyatini segmentlarga ajratgan holda har bir segmentda qo'shimcha qiymatni oshirish imkoniyatlarini aniqlash orqali raqobat ustunligini shakllantiradi. Ayniqsa, zamonaviy global bozor sharoitida qiymat zanjirining har bir bo'g'inini optimallashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish qiymat zanjirining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Boshqa tomondan, ta'minot zanjiri bilan uzviy integratsiyalashgan qiymat zanjiri modeli korxonalarga yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan mustahkam aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, bozor talablariga tezkor moslashish va mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondirish orqali qo'shilgan qiymatni ko'paytirishga olib keladi. Strategik rejalashtirish jarayonida qiymat zanjiridan foydalanish korxonalarga uzoq muddatli barqaror o'sish va moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini yaratadi. Natijada qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyalarini qiymat zanjiri asosida ishlab chiqish korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlab, ularning moliyaviy natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu boisdan qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda qiymat zanjiridan foydalanish masalalarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bir qator iqtisodchi olimlar qo'shilgan qiymatning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratgan. "Olingan moddiy resurslar qiymatiga qo'shilgan, ya'ni yaratilgan qiymat qo'shilgan qiymatdir. Umumiy holda, qo'shilgan qiymat bu firma tomonidan iste'mol qilingan xom ashyo va boshqa yetkazib beruvchilardan sotib olingan materiallar narxini chiqarib tashlagan holda aniqlanadigan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidir" [1].

I. Maslova fikricha, "makroiqtisodiy darajada YaIM hajmi bo'yicha hisoblangan qo'shilgan qiymat biznes xarajatlariga (ish haqi xarajatlari, daromadlar, soliq to'lovchilarning tranzaksiya xarajatlari va byudjet daromadlari) hamda birlamchi investitsiya resurslariga (asosiy kapitalning amortizatsiyasi va biznes sof foydasi) taqsimlanadi" [2]. Ko'rishimiz

mumkinki, mikro va makro darajada yaratilgan qo'shilgan qiymat bir-birini to'ldiradi.

E. Shuvalova qayd etishicha, "tovar ishlab chiqarish va sotishning har bir bosqichida qiymat qo'shiladi. Ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat ish haqi, ijara, amortizatsiya, foizlar va boshqa to'lovlar uchun sarflangan mablag'lar hamda foydadan tarkib topadi" [3]. Bundan ko'rinadiki, qo'shilgan qiymat bevosita korxonalarining moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

D. Kong va boshqalar fikricha, "global qiymat zanjirlarini chuqur qayta qurish bilan eksportning ichki qo'shilgan qiymatini (DVA) oshirish firmalar uchun sanoatni modernizatsiya qilish va yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanishga erishish uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda" [4]. Eksport tarkibida qo'shilgan qiymatning yuqori darajada bo'lishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Z. Zhu boshchiligidagi mualliflar jamoasining qayd etishicha, "rivojlanayotgan sektorlarga xos bo'lgan yuqori noaniqliklar sof joriy qiymat (NPV) kabi an'anaviy investitsiyalarni baholash usullarini yetarli emasligini ko'rsatadi, chunki ular kelajakdagi bozor o'zgarishlariga moslashishda boshqaruv moslashuvchanligining qiymatini aks ettira olmaydi. Natijada real imkoniyatlar tahlili (Real Options Analysis - ROA) yuqori xavfli, uzoq muddatli energiya loyihalarini baholash uchun ustuvor yondashuv sifatida paydo bo'lmoqda" [5]. Qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyalari samaradorligini baholashda an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan zamonaviy moliyaviy usullarni qo'llashni ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

D. Singhning tadqiqotlariga ko'ra "Yevropa Ittifoqida sanoat tuzilmasi va qo'shilgan qiymatning sanoat tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha tavsiflanadi: xizmat ko'rsatish sohalari umumiy qo'shilgan qiymatning 71 foizni, ishlab chiqarish sanoati 18,3 foizni, kommunal

xizmatlar va qurilish 7,7 foizni, qishloq xo'jaligi va baliqchilik 2,2 foizni va eng kam qo'shilgan qiymat konchilik sanoati 0,8 foizni tashkil qiladi. Ishlab chiqarish sektori sanoat qo'shilgan qiymatining beshdan bir qismidan kamrog'ini qo'shgan bo'lsa-da, barcha to'rtta sanoat sektorida ishlab chiqarish sektori yillik sanoat energiya iste'molining eng katta ulushini tashkil qiladi, odatda undan keyin tog'-kon, qurilish va qishloq xo'jaligi sektori keladi" [6]. Qo'shilgan qiymat turli sohalar va tarmoqlar kesimida turlicha bo'lishi mumkin. Muhimi har bir kompaniya yoki mamlakat o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishi zarur.

"Agar aholi tomonidan amalga oshiriladigan xususiy investitsiyalar hajmi oshsa, iqtisodiy o'sishga erishish mumkin. Investitsiyalarning ko'payishi iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida bandlik darajasi hamda iqtisodiy farovonlikning oshishiga olib keladi, chunki mehnat unumdorligi va ish haqi darajasi ortadi. Qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarish bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki qo'shilgan qiymat asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish ishchi kuchiga bo'lgan talab miqdorini oshirish imkoniyatiga ega" [7]. Iqtisodiyotda investitsiyalar oqimining o'sishi korxonalarni qo'shilgan qiymat yaratishga rag'batlantiradi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning turli moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi.

L. Gallo ta'kidlashicha, "investitsiya bankirlari xususiylashtirish bitimlarida ham sotuvchilar, ham sotib oluvchilar uchun muhim maslahatchilar hisoblanadi. Ularning foydaliligi xususiylashtirish jarayonini chuqur tushunishdan va korxonani baholash va baholashdagi xolisligidan kelib chiqadi. Ko'pgina xususiylashtirishlarning xalqaro miqyosi va katta hajmi jozibador ko'rinsa-da, oldindan aytib bo'lmaydigan xavf-xatarlar kutilishi mumkin" [8]. Qo'shimcha qiymat yaratishda korxonalarni birlashtirish hamda

qo'shib olish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini ham inobatga olish zarur. Korxonalarning birlashishi yoki boshqa korxonalar tomonidan qo'shib olinishi sinergetik effektni yuzaga keltirganligi bois qo'shilgan qiyamatning o'sishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada qo'shilgan qiymatni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda qiymat zanjiridan foydalanish masalalarini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, ilmiy mushohada, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullari o'rganilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlarining ko'rsatkichlari mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish tizimlariga qanchalik darajada integratsiyalashganligini kompleks tarzda baholash imkonini beradi (1-jadval). Birinchi ko'rsatkich sifatida ortga bog'langan global qo'shilgan qiymat zanjiri (backward participation) mamlakat eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishda xorijiy xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va komponentlardan foydalanish darajasini ifodalaydi hamda eksport tarkibidagi xorijiy qo'shilgan qiymat ulushi – ya'ni FVA (Foreign Value Added) orqali aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkich nafaqat ishlab chiqarish jarayonining qanchalik darajada tashqi manbalarga bog'liqligini aks ettiradi, balki mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni va global ishlab chiqarish tizimidagi rolini ham ochib beradi.

Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi, bir tomondan, mamlakat iqtisodiyotining tashqi resurslar va import komponentlarga qaramligini bildirsa, ikkinchi tomondan, uning global qo'shilgan qiymat zanjirlariga chuqur integratsiyalashganligini ko'rsatadi. Bunday holatda milliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro kooperatsiya tizimida faol ishtirok etadi, ilg'or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari

va innovatsion yechimlarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, ortga bog'langan ishtirokning ortib borishi iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan muayyan xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, tashqi bozorlardagi narx tebranishlari yoki geosiyosiy beqarorliklar

milliy ishlab chiqarish barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, mazkur ko'rsatkichni tahlil qilishda nafaqat integratsiya darajasini, balki import o'rnini bosish, mahalliyashtirish siyosati va ishlab chiqarish diversifikatsiyasini ham inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlarining ko'rsatkichlari [9]

Nº	Ko'rsatkich nomi	Mazmuni
1	Ortga bog'langan global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki	Eksport mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish uchun xorijiy resurslar va komponentlarni import qilish jarayonini ifodalaydi hamda eksport tarkibidagi xorijiy qo'shilgan qiymat ulushi (FVA) orqali o'lchanadi.
2	Oldinga bog'langan global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki	Mamlakat tomonidan eksport qilingan tovar va xizmatlarning boshqa davlatlar eksportida oraliq mahsulot sifatida qayta foydalanilishini anglatadi hamda bilvosita qo'shilgan qiymat (DVX) ko'rsatkichi bilan baholanadi.
3	Umumiy global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki	Eksport tarkibidagi xorijiy qo'shilgan qiymat (FVA) va uchinchi mamlakatlarga yo'naltirilgan bilvosita qo'shilgan qiymat (DVX) yig'indisini ifodalaydi.
4	Global qo'shilgan qiymat zanjiri intensivligi	Mamlakatning umumiy global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtirokining uning tashqi savdo hajmiga (eksport + import) nisbati orqali aniqlanadi va $(FVA + DVX)/(eksport + import)$ formulasi asosida hisoblanadi.

Izoh: DVX = bilvosita qo'shilgan qiymat (boshqa mamlakat eksportida qo'shilgan ichki qiymat); FVA = xorijiy qo'shilgan qiymat.

Ikkinchi muhim ko'rsatkich oldinga bog'langan global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki bo'lib, u mamlakat eksport qilgan tovar va xizmatlarning boshqa davlatlar tomonidan qayta ishlanib, o'z eksportida oraliq mahsulot sifatida foydalanilishini anglatadi. Mazkur jarayon bilvosita qo'shilgan qiymat, ya'ni bilvosita qo'shilgan qiymat orqali baholanadi va bu ko'rsatkich mamlakatning global qiymat yaratish tizimidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, umumiy global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki xorijiy qo'shilgan qiymat va bilvosita qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarining yig'indisi sifatida ifodalanib, mamlakatning global qiymat zanjiridagi umumiy faolligini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotining tashqi savdo bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. To'rtinchi ko'rsatkich sifatida global qo'shilgan qiymat zanjiri intensivligi mamlakatning umumiy

ishtirok darajasini uning tashqi savdo hajmiga nisbatan baholaydi. Ushbu nisbat (xorijiy qo'shilgan qiymat + bilvosita qo'shilgan qiymat)/(eksport + import) formulasi asosida aniqlanib, mamlakatning global qiymat zanjirlaridagi samaradorlik darajasini ko'rsatadi.

2-jadvalda keltirilgan global qo'shilgan qiymat zanjiri modellari iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida qiymat yaratish mexanizmlarini tizimli ravishda tushuntirib beruvchi muhim nazariy asos sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, xomashyo modeli qishloq xo'jaligi, yoqilg'i va foydali qazilmalar kabi tarmoqlarni qamrab olgan holda yuqori savdo darajasi bilan ajralib turadi, biroq unda mehnat va bilim intensivligi nisbatan past darajada shakllanadi. Shu bilan birga, mehnatga asoslangan xizmatlar modeli ulgurji va chakana savdo, transport, turizm hamda ijtimoiy xizmatlar kabi sohalarda qo'llanilib, past savdo

darajasi fonida yuqori mehnat intensivligi bilan tavsiflanadi. Mehnatga asoslangan tovarlar modeli esa, ayniqsa to'qimachilik va kiyim-

kechak sanoatida keng qo'llanilib, yuqori savdo va mehnat intensivligi bilan birga, bilim intensivligining pastligi bilan farqlanadi.

2-jadval

Global qo'shilgan qiymat zanjiri modellari [9]

N ^o	Qo'shilgan qiymat zanjiri modellari	Qamrab olinadigan asosiy tarmoqlar	Savdo darajasi	Mehnat intensivligi	Bilim intensivligi
1.	<i>Xomashyo modeli</i>	Qishloq xo'jaligi, yoqilg'i, foydali qazilmalar	Yuqori	Past	Past
2.	<i>Mehnatga asoslangan xizmatlar modeli</i>	Ulgurji va chakana savdo, transport va saqlash, turizm, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, shaxsiy xizmatlar, lizing	Past	Yuqori	Past
3.	<i>Mehnatga asoslangan tovarlar modeli</i>	To'qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal, charm mahsulotlari	Yuqori	Yuqori	Past
4.	<i>Mintaqaviy qayta ishlash modeli</i>	Oziq-ovqat va ichimliklar, metall mahsulotlari, rezina va plastmassa, shisha, sement va keramika, mebel	Past	Past	Past
5.	<i>Bilimga asoslangan xizmatlar modeli</i>	Ilmiy-tadqiqot, IT xizmatlari, professional xizmatlar, ta'lim	Past	Past	Yuqori
6.	<i>Bilimga asoslangan tovarlar modeli</i>	Avtomobilsozlik, transport uskunolari, kompyuter va elektronika, elektr mashina va jihozlar, kimyo va farmatsevtika	Yuqori	Past	Yuqori


Mintaqaviy qayta ishlash modeli oziq-ovqat, metall va qurilish materiallari ishlab chiqarishda ustunlik qilib, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan past darajalarni namoyish etadi, bu esa uning lokal xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bilimga asoslangan xizmatlar modeli ilmiy-tadqiqot, IT va professional xizmatlar kabi yuqori intellektual salohiyat talab qiluvchi sohalarini qamrab olib, past savdo va mehnat intensivligi sharoitida yuqori bilim intensivligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, ushbu model zamonaviy raqamli iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bilimga asoslangan tovarlar modeli esa avtomobilsozlik, elektronika va farmatsevtika kabi yuqori texnologik tarmoqlarni o'z ichiga olgan holda, yuqori savdo va bilim intensivligi bilan tavsiflanadi. Mazkur model global bozorlar bilan chuqur

integratsiyalashgan bo'lib, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

1-rasmda 2007–2024-yillar davomida jahon yalpi eksporti tarkibida global qiymat zanjiri ulushining dinamikasi ko'rsatilgan bo'lib, unda xalqaro savdo tizimining tarkibiy o'zgarishlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu davrda jahon yalpi eksporti hajmi umumiy o'sish tendensiyasini saqlab qolgan bo'lsa-da, ayrim yillarda global iqtisodiy inqirozlar ta'sirida qisqa muddatli pasayishlar kuzatilgan. Xususan, 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz davrida eksport hajmi keskin kamayganligi bilan birga, global qiymat zanjiri bilan bog'liq savdo ulushi ham qisqargan. Shunga qaramay keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish jarayonlari natijasida xalqaro ishlab chiqarish aloqalari qayta faollashib, global qiymat zanjiri ulushi bosqichma-bosqich ortib

borgan. An'anaviy savdo hajmi bilan taqqoslaganda global qiymat zanjiri bilan bog'liq savdoning o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'lib, bu ishlab chiqarish jarayonlarining xalqaro darajada chuqurlashganligini anglatadi. Ayniqsa, 2016-yildan keyin global qiymat zanjiri ulushining sezilarli darajada ortishi sanoat kooperatsiyasi va transmilliy ishlab chiqarish tarmoqlarining kengayganligini ko'rsatadi. 2020-yilda pandemiya ta'sirida qisqa muddatli

pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi davrda raqamli iqtisodiyot va logistika tizimlarining moslashuvi natijasida tiklanish jarayoni tezlashgan. 2021–2024-yillar oralig'ida esa jahon yalpi eksporti va global qiymat zanjiri bilan bog'liq savdo hajmlarining sezilarli o'sishi kuzatilib, bu global integratsiyaning yanada chuqurlashganini tasdiqlaydi. Shuningdek, an'anaviy savdo ulushi ham o'sishda davom etgan bo'lsa-da, global qiymat zanjiri asosidagi savdoning ahamiyati tobora ortib bormoqda.



1-rasm. 2007–2024-yillarda jahon yalpi eksportining tarkibida global qiymat zanjiri ulushi [10]

3-jadvalda jahon savdosining 2017–2024-yillar oralig'idagi rivojlanish yo'nalishlari hamda ushbu jarayonlarga global qo'shilgan qiymat zanjirining ta'siri tizimli ravishda ifodalangan bo'lib, unda xalqaro savdo dinamikasining murakkab va ko'p omilli tabiati yaqqol ko'rinadi. Xususan, 2017-yilda AQSh savdo siyosatining o'zgarishi va NAFTA kelishuvining qayta muzokara qilinishi

natijasida jahon eksporti hajmi 22,94 trillion AQSh dollariga yetib, 16 foizga oshgan bo'lsa, global qiymat zanjiri savdosi bundan ham tezroq, ya'ni 23 foizga o'sgan. 2018-yilda XXR va AQSh o'rtasidagi savdo mojarosi fonida umumiy eksport hajmi 25,48 trillion dollarga yetgan bo'lsa-da, savdo o'sish sur'atlarida muayyan barqarorlashuv kuzatilgan.

3-jadval

Jahon savdosining rivojlanish yo'nalishlari va ularga qo'shilgan qiymat zanjirining ta'siri [11]

Yil	Jahon savdosining rivojlanish yo'nalishlari	Eksport hajmi (mlrd. AQSH dollari) va yillik o'zgarish	Global qiymat zanjiri savdosi (mlrd. AQSH dollari) va yillik o'zgarish	An'anaviy savdo (mlrd. AQSH dollari) va yillik o'zgarish
2017	AQSh savdo siyosatining o'zgarishi (NAFTA qayta muzokarasi)	\$22,94 trln., +16%	\$10,7 trln., +23%	\$12,2 trln., +12%
2018	XXR-AQSh savdo mojarosi	\$25,48 trln., +11%	\$11,9 trln., +11%	\$13,5 trln., +11%
2019	Global savdo sekinlashuvi	\$23,8 trln., -6,6%	\$10,5 trln., -11,8%	\$13,1 trln., -3%
2020	COVID-19 pandemiyasi	\$21,6 trln., -9%	\$9,4 trln., -10,3%	\$12,2 trln., -7,15%
2021	Ta'minot zanjiri uzilishlari, konteyner yetishmovchiligi	\$27,2 trln., +25,8%	\$12,6 trln., +34,2%	\$14,58 trln., +19,3%
2022	Rossiya-Ukraina urushining boshlanishi	\$30,26 trln., +11%	\$14,5 trln., +14,9%	\$15,74 trln., +8%
2023	Qizil dengizdagi mojarolar, Panama kanali qurg'oqchiligi, G'azodagi mojarolar	\$29,5 trln., -2,4%	\$13,7 trln., -5,35%	\$15,77 trln., +0,18%
2024	Uglerod chegaraviy siyosatining kengayishi; geosiyosiy keskinliklarning davom etishi; AQSh tomonidan xomashyo bo'yicha universal tariflar tahdidi	\$30,7 trln., +4,23%	\$14,26 trln., +3,8%	\$16,5 trln., +4,6%

2019-yilda esa global savdoning sekinlashuvi natijasida eksport hajmi 6,6 foizga qisqarib, global qiymat zanjiri savdosida yanada keskinroq, ya'ni 11,8 foizlik pasayish qayd etilgan. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi ta'sirida jahon savdosi keskin zarba olib, eksport hajmi 9 foizga kamaygan bo'lsa, global qiymat zanjiri savdosi ham 10,3 foizga qisqargan. 2021-yilda esa pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari va ta'minot zanjiridagi uzilishlarga qaramay, eksport hajmi 25,8 foizga oshib, 27,2 trillion dollarga yetgan, global qiymat zanjiri savdosi esa 34,2 foizlik o'sish bilan yanada tezroq tiklangan. 2022-yilda Rossiya-Ukraina urushi boshlanishi global savdo muhitiga yangi geosiyosiy xatarlar olib kirgan bo'lsa-da, eksport hajmi 30,26 trillion dollarga yetib, o'sish saqlanib qolgan. 2023-yilda esa Qizil dengizdagi mojarolar, Panama kanalidagi qurg'oqchilik va G'azodagi vaziyat tufayli jahon savdosida pasayish kuzatilib, eksport hajmi 2,4 foizga qisqargan. Shu bilan birga, global qiymat zanjiri savdosi ham 5,35 foizga

kamayib, uning tashqi shoklarga nisbatan sezgirliigi yana bir bor namoyon bo'lgan. 2024-yilda esa uglerod chegaraviy siyosatlarining kengayishi hamda geosiyosiy keskinliklarga qaramay, jahon savdosi qayta tiklanib, eksport hajmi 30,7 trillion dollarga yetgan va ijobiy o'sish sur'atlari qayd etilgan.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan tahlillar, jadval va grafik ma'lumotlar asosida global qo'shilgan qiymat zanjirlaridan samarali foydalanish hamda jahon savdosidagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish nuqtai nazaridan quyidagi kengaytirilgan tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

Birinchidan, mamlakatlar eksport tarkibini diversifikatsiya qilish orqali nafaqat xomashyo modelidan bosqichma-bosqich voz kechib, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan bilimga asoslangan tovarlar va xizmatlar ulushini oshirishga e'tibor qaratishi zarur, chunki bu yondashuv global qiymat

zanjirida yuqori pog'onalarni egallash imkonini beradi;

Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish va mahalliyashtirish siyosatini kuchaytirish orqali ortga bog'langan global qiymat zanjiri ishtirokida xorijiy komponentlarga qaramlikni kamaytirish, shu bilan birga ichki qo'shilgan qiymat ulushini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi;

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalar va raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali korxonalar global qiymat zanjirining samaradorligini oshirishi, logistika va ta'minot tizimlaridagi uzilishlarga nisbatan

barqarorlikni ta'minlashi lozim, ayniqsa pandemiya va geosiyosiy inqirozlar tajribasi buni yaqqol ko'rsatdi;

To'rtinchidan, xalqaro savdo siyosatini moslashuvchan tarzda yuritish, jumladan erkin savdo bitimlarini kengaytirish va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish orqali mamlakatlar global qiymat zanjirlariga yanada faol integratsiyalashishi mumkin;

Beshinchidan, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish orqali tashqi savdo yo'llaridagi xavflarni kamaytirish hamda global qiymat zanjiri uzilishlarining salbiy ta'sirini minimallashtirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. McConnell C. R., Brue S. L., Flynn S. *Economics: Principles, Problems, and Policies*. // New York: McGraw-Hill Education, 2019.
2. Maslova I. A. *Makroekonomika*. // uchebnik. Moskva: INFRA-M., 2022.
3. Шувалова Э. Б. *Налоги и налогообложение*. // Москва: Юрайт. 2018.
4. Dongmin Kong, Yifan Jin, Shasha Liu. *Labor costs and domestic value added: Evidence based on the China's new Labor Contract law*. // *Labour Economics*, Volume 97, December 2025. - p. 3.
5. Zhentao Zhu, Wen Ding, Wenyi Tan, Ling Wu, Xingguang Chen, Hao Xu, Zi Yuan, Xinyang Xia. *Two-stage investment strategies for photovoltaic hydrogen refueling stations in China: Regional and policy implications*. // *International Journal of Hydrogen Energy*, Volume 201, 16 January 2026.
6. Devesh Singh. *Renewable energy, urban primacy, foreign direct investment, and value-added in European regions*. // *Renewable Energy*, Volume 186, March 2022, Pages 547-561.
7. Jamaliah. *The Effect of Investment to Value Added Production, Employment Absorption, Productivity, and Employees' Economic Welfare in Manufacturing Industry Sector in West Kalimantan Province*. // *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, Volume 219, 31 May 2016, Pages 387-393.
8. Luis G. Gallo. *The value-added of investment bankers in privatizations*. // *The Columbia Journal of World Business*, Volume 28, Issue 1, Spring 1993, Pages 196-205.
9. *Foreign Direct Investment and Global Value Chains* // The World bank Group, 2021.
10. *Rewiring GVCs in a Changing Global Economy*. // *Global Value Chain Development Report* 2025.
11. https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/gvcreport2025_e.htm